

Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich
Namangan State University, Researcher
E-mail: iisoliiev@gmail.com

BASIS OF IMPLEMENTING THE PRINCIPLES OF INSTITUTIONAL INDEPENDENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In this article, many reforms, innovative projects, approaches aimed at increasing the quality of higher education and the efficiency of personnel training are being implemented, and through this, pedagogical and psychological possibilities of adaptation of HEIs to new socio-economic and political changes are highlighted.

Key words: Management system of higher education institutions, management system reform, new principles, quality education, intelligence, culture, institutional independence, investment.

KIRISH

Jahonda oliy ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab islohotlar, innovatsion loyihalar, yondashuvlar amalga oshirilmoqda va bu orqali OTMlarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga moslashtirish maqsad qilinmoqda. Jahonning eng salohiyatli oliy ta'lim muassasalari reytingida yetakchi o'rinlarni egallashga intilgan turli mamlakatlar va akademik doiralar zamonaviy dunyoda ta'limning maqsadi va o'zni haqida yangi tasavvurlarni ishlab chiqishga harakat qilmoqdalar. Hozirda jahon miqyosidagi OTMlar – nafaqat sifatli ta'lim beruvchi, intellekt va madaniyatni rivojlantiruvchi emas, balki ular g'urur va iftixor manbaiga aylandi, chunki mamlakatlar o'z o'quv muassasalari statusini boshqalarniki bilan solishtirib baholaydigan, o'zining taraqqiyotini shu omil bilan bog'laydigan bo'ldilar. Shuning uchun ham, rivojlanayotgan davlatlar ham OTMlarni xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashga tayyorlab, yo'naltira boshladilar. Biroq, bunday natijaga oliy ta'limda ilg'or boshqaruv usuli – avtonomiya tamoyillarini joriy etmasdan erishib bo'lmashligi ham ma'lum bo'lmoqda. Shu bois oliy ta'lim boshqaruviga institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish vazifalarini ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Dunyoning ilg'or xalqaro oliy ta'lim texnika oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga e'tibor berilganda, imitatsion-variantivlik asosida o'qitish - bo'lajak muhandislar uchun ta'lim jarayoni, birinchi navbatda, hozirgi vaqtda o'rganish va o'rganilgan tadqiqotlardan

kelajakda butunlay yangi sharoitlarda yoki vaziyatlarda foydalanish imkoniyatidir. Ushbu tadqiqot ishimiz orqali ham biz, immitatsion-variativlik asosida o'qitish qanday qilib texnika oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy kompetentliklarini oshirish jihatlari yoki o'z kasbini texnologik madaniyatni tashkil etuvchi komponentlar va ularning mutaxassislik fanlarni o'qitishdagi o'rni va mazmunini integrallashuvi o'laroq tushunishni rivojlantirish yoki ularni texnologik jixatdan takomillashtirish usullarini yaratish masalasi ekanligini ko'rsatamiz [2]. Bu jarayonda albatta asosiy fundamental va aprior omil bu immitatsion model hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy ta'lim boshqaruviga institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etishning konseptual, pedagogik, tashkiliy masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, European University Association (Belgiya), The University of Houston (AQSH), The University of Nottingham (Buyuk Britaniya); The University of Hong Kong (Xitoy); Marmara Universiteti (Turkiya), Princeton University (AQSH), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Научный центр гуманитарных исследований (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida olib borilmoqda.

Jahon oliy ta'lim tizimi boshqaruvida mustaqillik tamoyillarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSH), BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD) muassasasi shular jumlasidandir. Misol uchun, 1994 yilda YUNESKO va Umumjahon banki oliy ta'limni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari asosida chop etilgan "Oliy ta'lim: tajriba saboqlari"ida ham daromad darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlarda ta'limga investitsiyani oshirish, ta'lim boshqaruviga yangicha tamoyillarni olib kirish katta samara berishini ilgari surgan holda, eng asosiysi, oliy ta'limga mablag'larni investitsiya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar zarurligi ham e'tirof qilgan bo'lsa, 2000-yilda YUNESKO va Umumjahon bankining birgalikdagi tashabbuslari natijasi sifatida nashr qilingan "Rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim: xavf-xatar va istiqbollar"ida ham rivojlanishning har qanday umumiy strategiyasida oliy ta'limning ahamiyati ko'rsatilgan bo'lsa[3], 2002-yildagi "Bilim jamiyatini qurish: uchlamchi ta'lim sohasidagi yangi takliflar"nomli boshqa bir nashrida oliy ta'lim mamlakatning

rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida raqobatbardosh bo'lishiga kuchli hissa qo'shishi tadqiq etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda oliy ta'lim boshqaruvini zamonaviylashtirish va unga yangicha tamoyillarni olib kirish masalalari bilan shug'ullangan olimlaridan G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.SH.Bekmurodov, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, I.U.Majidov, D.X.Nabiyev, R.I.Nurimbetov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, A.N.Samadov, T.SH.Shodiyev, Sh.D.Ergashxodjayeva, A.T.Yusupov, Sh.Qurbonovlar tomonidan o'rganilgan.

Oliy ta'lim boshqaruviga institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etishning samaradorligi, institutsional mustaqillikni shakllantirishning konseptual, metodologik va tashkiliy-pedagogik jihatlari, professional boshqaruvning OTM tashkiliy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri, OTMlardagi boshqaruv kadrlari: rektor, prorektor, dekan, kafedra mudirlari faoliyatidagi professionlizmning namoyon bo'lishi va takomillashtirish zarurati MDH davlatlari olimlaridan N.V.Demidova, S.V.Sulima, S.A. Drujilov, K.I. Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A. Sazikina, O. Bichkova, L.Verbitskaya, V.Kasevich, M. V.Niyazova, V. YE.Varavenko, Yoxan G.Vissema, F. Altbax, P.Y. Grishina, R. N. Abramov, E. V. Galajinskiy, A. O. Grudzinskiy, R. Dim, V.Konnov, M Repina va boshqalar tomonidan o'rganilgan hamda tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar berilgan.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayoniga institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish usullarini xorijlik olimlardan Ph.Altbach, K. A. Khoon, R. Shukor, O. Hassan, Z. Saleh, A. Hamzah, R. Ismail, Alden, J. G. Lin, S.K. Katsikas, R.Stichweh, I. Ordorika, P. G. Kielmansegg, Rh. Buchbinde, U.Felt, M.Glanz, M.Henkel, R.L.Geiger, J.F.Volkwein, S.M. Malik, O.C. McDaniel, P.Lingenfelter, G. A.Jones, Th.Shanahan, P.Goyan, Th.Estermann, T.Nokkala, M.Steinell va boshqalarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan[4]. Biroq, hozirga qadar OTMlarda yangicha boshqaruv tamoyillarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, ularni yetarli darajada muammoni yoritadi deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra, mazkur masalalar yuzasidan bir qator ilmiy, uslubiy va amaliy muammolarning hal etilish zarurati mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bir davrini bosib o'tdi. Bunda xalq farovonligi va iqtisodiy barqarorlikka erishish hamda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bosh strategik maqsadlar sifatida e'tirof etildi. Xususan, ushbu jarayonlarda ta'lim tizimi rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Sababi

har qanday ko'zlangan strategiya va ezgu maqsadlarga erishishdagi eng muhim o'lchov bu zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan salohiyatli kadrlardir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari tomonidan O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu mavzuning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan bir nechta risola va maqolalar yozildi. Shular jumlasiga Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, R.Ahliddinov, M.Saidov, L.Allayev, D. Vasiyeva, R.Urazbayeva, S.Karimbekov, R.Siddiqov va boshqalarning oliy ta'limni isloh qilishni dolzarb masalalarini tadqiq etgan ilmiy ishlarni kiritish mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan olimlarni ishlarida asosan O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilishni umumiy masalalari o'rganilgan.

Mamlakatimiz va xalqimiz hayotida keyingi besh yil hech o'ylab ko'rilmagan, xayolga keltirilmagan yangiliklarga boy bo'ldi. Aynan shu davrda mamlakatimiz iqtisodiyotida, madaniyati va ma'naviyatida, ijtimoiy-siyosiy hayotida, turmush tarzida, dunyoqarashiyu, tafakkurida demokratik o'zgarishlar yuz berdi. Umuman hamma sohada katta yuksalish, rivojlanish va ijobiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu besh yillikda demokratik qadriyatlar, fuqarolarning demokratik-huquqiy erkinliklari qaror topib, matbuot va so'z erkinligiga yo'l ochib berildi. Jamiyatga demokratik huquqiy va matbuot erkinligini berish har qanday davlat rahbaridan katta matonat va jasorat talab etadi.

Ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz ob'ro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada qator meyoriy hujjatlar qabul qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Prezidentimiz ta'limdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi. Ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy- ma'rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o'qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etishga katta e'tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, o'qituvchilar oyligini oshirish va rag'batlantirib borish zarurligini ko'rsatdi, bu masalalarda katta ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasasi (OTM) bozor munosabatlari keng va chuqur amal qilayotgan sharoitda faoliyat olib borishiga to'g'ri kelmoqda. Shuning

uchun OTM faoliyatining moliyaviy barqarorligi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy jarayonlarning oqilona yo'lga qo'yilishi OTMdagi ta'lim-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining izchil va yuqori samara bilan olib borilishiga, ilmiy-pedagogik salohiyat va moddiy-texnik bazadan samarali foydalanishga xizmat qiladi[5]. Ko'rinib turibdiki, OTMning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlari va barqarorligi alohida ahamiyat kasb etmoqdaki, bu borada iqtisodiy diagnostika orqali ta'lim sifatini baholash chora-tadbirlarini ishlab chiqish obyektiv zaruriyat bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – Т., 2005. – 244 б.; Зайнутдинов Ш.Н., Очилов А.О. Олий таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини баҳолаш //
2. Рахманбаева Р.А. Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Автореф.дисс. ... д-ра эконом. наук. – Т., 2012. – 50 с
3. Obidov J.G., Effectiveness of improving students' knowledge about the basics of the concept of technological determinism., International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted., from Berlin, Germany <https://conferencea.org.>, June 30th 2022., 348-354 pages
4. Юсупов А.Т. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар давлат аттестацияси: методологик-услубий, норматив-ҳуқуқий ва илмий-ташкилий йўналишлари / А.Т. Юсупов. – Т., 2013. – 648 б.; Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. – Т., 2006. – 592 б.
5. Резник С. Д. (ред.) (2013) Ректоры России: система и механизмы профессионального становления. М.: НИЦ ИНФРА-М. Резник С. Д., Сазыкина О. А. Управленческое воздействие заведующих кафедрами на персонал: результаты мониторинга // Russian Journal of Management. 2016. Т. 4, № 2. С. 184–196.